



ISSN: 2181-9416

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТИНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

YURIST AXBOROTNOMASI

5-SON, 7-JILD

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 5, ВЫПУСК 7

LAWYER HERALD

VOLUME 7, ISSUE 5



RAXMANOV Shuxrat Naimovich

Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasini mudiri,
yuridik fanlar doktori, dotsent
E-mail: shuxratjon@gmail.com

XALQARO TASHKILOTLAR DIPLOMATIK HUQUQINING TAVSIYAVIY MANBALARI (NAZARIY-AMALIY TAHLIL)

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): RAXMANOV Sh.N. Xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqining tavsiyaviy manbalari (nazariy-amaliy tahlil) // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 5 (2024) B. 83-90.



5 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola zamonaviy xalqaro huquqda xalqaro tashkilotlar rezolyutsiyalarining o'рни va ahamiyatini chuqur tahlil qilishga bag'ishlangan va xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning huquqiy kuchini aniqlash, ularning majburiy yoki tavsiyaviy tabiatini farqlash, shuningdek, xalqaro huquq manbalari tizimidagi o'rnini belgilashdan iborat. Maqolada BMT Xavfsizlik Kengashi va Bosh Assambleyasi qarorlarining yuridik tabiati, xalqaro tashkilotlarning ichki huquqini shakllantirish jarayonlari, normativ rezolyutsiyalarning mezonlari hamda ularning amaliy ahamiyati batafsil ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda xalqaro tashkilotlar rezolyutsiyalarining turli toifalari ajratib ko'rsatilib, ularning xalqaro huquq tizimiga ta'siri ham nazariy, ham amaliy nuqtayi nazardan baholanadi. Maqolada xalqaro tashkilotlar rezolyutsiyalari nafaqat xalqaro huquq amaliyoti elementlari sifatida, balki diplomatik huquqning mustaqil manbai sifatida ham o'rganilib, ularning xalqaro tartibga solish mexanizmlarining rivojlanishidagi dolzarb roli yoritiladi.

Kalit so'zlar: xalqaro tashkilotlar, diplomatik huquq, rezolyutsiyalar, normativ aktlar, xalqaro huquq manbalari, BMT, majburiy qarorlar, tavsiyaviy qarorlar.

РАХМАНОВ Шухрат Наимович

Заведующий кафедрой Международного права и
прав человека Ташкентского государственного
юридического университета,
доктор юридических наук, доцент
E-mail: shuxratjon@gmail.com

РЕКОМЕНДАТЕЛЬНЫЕ ИСТОЧНИКИ ДИПЛОМАТИЧЕСКОГО ПРАВА МЕЖДУНАРОДНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ (ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ И ПРАКТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ)

АННОТАЦИЯ

Настоящее исследование посвящено комплексному анализу роли и правового значения резолюций международных организаций в современной системе международного права. В работе проводится детальное определение юридической силы решений, принимаемых международными институтами, с акцентом на разграничение их обязательного и рекомендательного характера, а

также на выявление их места в иерархии источников международного права. Особое внимание уделено юридической природе резолюций Совета Безопасности и Генеральной Ассамблеи Организации Объединённых Наций, механизмам формирования внутреннего права международных организаций, а также критериям нормативных резолюций и их практической значимости. В статье систематизированы различные виды резолюций, проанализировано их воздействие на развитие международно-правовой системы как с теоретической, так и с практической точек зрения. Резолюции международных организаций рассматриваются не только в качестве элементов международно-правовой практики, но и как самостоятельный источник дипломатического права, что подчеркивает их актуальную роль в эволюции механизмов международного регулирования.

Ключевые слова: международные организации, дипломатическое право, резолюции, нормативные акты, источники международного права, ООН, обязательные решения, рекомендательные решения.

SHUKHRAT Rakhmanov

Head of the International Law and Human Rights
Department of the Tashkent State University of Law
Associate Professor, Doctor of Law
E-mail: shuxratjon@gmail.com

RECOMMENDATORY SOURCES OF DIPLOMATIC LAW OF INTERNATIONAL ORGANIZATIONS (THEORETICAL AND PRACTICAL ANALYSIS)

ANNOTATION

This article is devoted to a comprehensive analysis of the role and significance of resolutions of international organizations in contemporary international law. It aims to determine the legal force of decisions adopted by international organizations, to distinguish between their binding and recommendatory nature, and to clarify their place within the system of sources of international law. The article examines in detail the legal nature of the decisions of the UN Security Council and the General Assembly, the processes of forming the internal law of international organizations, the criteria of normative resolutions, as well as their practical importance. The study identifies different categories of resolutions of international organizations and evaluates their impact on the international legal system from both theoretical and practical perspectives. Resolutions of international organizations are analyzed not only as elements of international legal practice but also as an independent source of diplomatic law, which highlights their current role in the development of international regulatory mechanisms.

Keywords: international organizations, diplomatic law, resolutions, normative acts, sources of international law, UN, binding decisions, recommendatory decisions.

Zamonaviy davrda xalqaro munosabatlarni tartibga solishning eng maqbul usullaridan biri sifatida xalqaro tashkilotlar qarorlarining roli ortib bormoqda. O'zbekiston hamkorligining ko'p qirraliligi mamlakatimizning barcha darajadagi xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarni yanada mustahkamlash va rivojlantirishga bo'lgan intilishi bilan belgilanadi. O'z navbatida, bu boradagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlariga urg'u bergan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy kengash va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar doirasida ko'p tomonlama hamkorlikni jadallashtirishni davom ettirishimiz zarur" deb ta'kidlab o'tadi [1].

Xalqaro tashkilotlarning samaradorligi, jumladan, bunday qarorlar qabul qilishning tezkorligi, ular yordamida xalqaro munosabatlarning ancha keng doirasini tartibga solish imkoniyati va boshqa bir qator omillar bilan izohlanadi.

Xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqining subyekti xalqaro tashkilotlar hisoblanishi tufayli, shunga mos ravishda, ushbu tarmoqning manbalari qatorida xalqaro tashkilotlarning qarorlari ham alohida ta'kidlanadi va o'z navbatida xalqaro tashkilotlar rezolyutsiyalarining yuridik kuchi masalasi kun tartibiga chiqadi. Bu masala yuzasidan G.I. Tunkin shunday yozgan edi: "Xalqaro munosabatlarda ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlarning normativ tavsiyalarining roli shubhasiz ortib bormoqda. Shuning uchun ularning huquqiy tabiati va dolzarb ahamiyatini belgilash ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega [2, B.159]. Christine Chinkin ta'kidlaganidek, "xalqaro tashkilotlar normativ faoliyati orqali xalqaro huquqning rivojlanishiga muhim hissa qo'shmoqda" [3].

Yuqoridagilarga ko'ra, xalqaro tashkilotlar rezolyutsiyalarining yuridik kuchi va mohiyati nimada degan savolga javob berish zarur. Xalqaro tashkilotlarning xalqaro huquq ijodkorligi jarayonida u yoki bu shaklda ishtirok etish faktini ko'pchilik xalqaro huquqshunoslari tan oladi. Shu munosabat bilan, P.N. Biryukov "hozirgi vaqtda xalqaro huquq normalarini yaratishning yangi usuli – xalqaro tashkilotlar va organlarning rezolyutsiyalarini qabul qilish orqali faol ravishda tarqaldi" deb ta'kidlaydi [6].

Xalqaro tashkilotlar tomonidan huquqiy norma qabul qilish shakllari doirasi juda keng: davlatlarga ko'p tomonlama shartnomalar tuzishda ko'maklashishdan tortib, a'zo-davlatlar uchun majburiy xulq-atvor qoidalarini o'z ichiga olgan bir tomonlama qarorlarigacha bo'lib, bu orqali xalqaro tashkilotlar nafaqat davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, balki xalqaro huquq tizimini rivojlantirish va umum e'tirof etilgan huquqiy me'yorlarni shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Xalqaro tashkilotning huquq ijodkorligi jarayoni huquqiy normalarni yaratish, shuningdek, ularni yanada takomillashtirish, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan faoliyatni o'z ichiga oladi.

Xalqaro tashkilotlarning qarorlari, qoida tariqasida, tavsiyaviy xususiyatga ega rezolyutsiyalar shaklida qabul qilinadi. Shu bilan birga, xalqaro huquq manbayining zaruriy xususiyati majburiylik hisoblanadi, ya'ni huquq subyektlarining xatti-harakatlarini belgilovchi qoidalarni shakllantirish bo'lib, ularni bajarmaganlik uchun aybdor subyektga nisbatan xalqaro-huquqiy javobgarlik choralari qo'llanilishi mumkin. Shunga qaramay, zamonaviy xalqaro huquq doktrinasida xalqaro tashkilotlar rezolyutsiyalarining ayrim toifalari xalqaro huquqning manbayi sifatida e'tirof etiladi degan fikrlar o'z tasdig'ini topgan. Shu munosabat bilan, xalqaro tashkilotlarning ichki va tashqi huquqiga oid majburiy qarorlari xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqining manbasi hisoblanadi, deb ta'kidlash mumkin.

Xalqaro-huquqiy adabiyotlarda xalqaro tashkilotlar qarorlarining yuridik kuchiga oid ko'plab fikrlar bildirilgan. Shu bilan birga, tashkilotning ichki tashkiliy-huquqiy masalalar bo'yicha qarorlarining majburiylikiga shubha yo'q. Bunday qarorlar tashkilot va uning a'zolari uchun majburiy deb tan olinadi. Xalqaro tashkilotlarning amaliyoti ham ularning ichki huquqlari bilan bog'liq masalalar bo'yicha qabul qilgan qarorlari a'zo-davlatlar uchun majburiy ekanligini ko'rsatadi. Masalan, Yevropa Kengashi Ustavining 16-moddasiga muvofiq, Vazirlar qo'mitasi Yevropa Kengashining ichki tashkiliy-huquqiy va faoliyatini olib borish tartibiga tegishli har qanday masala bo'yicha majburiy qarorlar qabul qiladi.

Xalqaro tashkilotlar organlarining tashkilot maqsadlarini bevosita amalga oshirish masalalari bo'yicha qarorlarining yuridik kuchiga nisbatan vaziyat biroz boshqacha. Bu masala bo'yicha turli nuqtai nazarlar mavjud. Masalan, V.Moraveskiy "xalqaro tashkilotning organlari tomonidan tashqi vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan yuridik qoidalar uning a'zolari tomonidan majburiy

ravishda bajarilishi kerak” deb hisoblaydi [4, B.151]. Shu bilan birga, N.B.Krilovning soʻzlariga koʻra, “tashkilot ustavlarini ishlab chiqishda taʼsischilar tashkilot faoliyatining asosiy masalalari boʻyicha qarorlari kelajakda ular bilan qanchalik bogʻliqligini diqqat bilan hal etishadi. Xalqaro tashkilotlarga mohiyatiga koʻra majburiy aktlar qabul qilish imkoniyatini berish masalasida davlatlar juda ehtiyotkorlik bilan yondashadilar. Shuning uchun, hatto mantiqiy jihatdan ham, davlatlar tashkilotga majburiy hujjatlarni qabul qilish huquqini bermoqchi boʻlsa ham, buni ustavda aniq koʻrsatmaslikni tasavvur qilib boʻlmaydi. Shuni ham yodda tutish kerakki, xalqaro huquq subyektlari oʻrtasidagi kelishuv huquqiy normalarni yaratishning yagona usuli hisoblanadi. Binobarin, agar davlatlar tizimlararo tashkilot qarorlariga boʻysunishga rozi boʻlganida, ular buni albatta ustavda ifodalagan boʻlardi» [5, B.90-91].

Shu munosabat bilan biz toʻxtalib oʻtmoqchi boʻlgan birinchi masala – xalqaro tashkilotlar rezolyutsiyalarining yuridik kuch manbaidir. Ushbu masala boʻyicha P.N.Biryukov taʼkidlaganidek, “xalqaro tashkilotlar rezolyutsiyalarining yuridik kuchi ularning ustavi bilan belgilanadi. Aksariyat tashkilotlarning ustavlariga koʻra, ular organlarining rezolyutsiyalari tavsiyaviy xarakterga ega” [6]. Xalqaro tashkilotlar rezolyutsiyalarining yuridik kuchi tashkilotning ustavi orqali vujudga kelishini maʼqullagan holda, biz P.N.Biryukovning ikkinchi banddagi fikriga qoʻshilmaymiz, chunki koʻpgina xalqaro tashkilotlar asosiy yoki oliy organlariga majburiy vakolatlarni, shu jumladan muayyan toifadagi masalalar boʻyicha majburiy qarorlar qabul qilish vakolatini beradi. Shu munosabat bilan V.Moraveskiy “tashqi tartibga solish – davlatlar oʻrtasidagi hamkorlik mexanizmi sifatida xalqaro tashkilotning normal faoliyat olib borishini taʼminlash uchun zarur boʻlgan funktsiya hisoblanmaydi”, deya taʼkidlaydi. Bu xalqaro tashkilot tomonidan oʻz vakolatlari doirasida nazariy jihatdan xalqaro munosabatlarni shakllantirishning mumkin boʻlgan usullaridan biridir. Shuning uchun xalqaro tashkilot tashqi tartibga solish xususiyatiga ega xalqaro huquq normalarini oʻrnatish huquqiga faqatgina davlatlarning tegishli ustav qoidalarini tasdiqlash orqali ifodalangan roziligi asosidagina ega boʻlishi mumkin [4].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ikkita asosiy savol dolzarb ahamiyatga ega boʻladi:

*Birinchi*dan, xalqaro tashkilotlarning taʼsis (nizom) hujjatlarida ular rezolyutsiyalarining (qarorlarining) yuridik kuchiga oid qoidalar mavjudmi?

*Ikkinchi*dan, xalqaro tashkilotlarning taʼsis (nizom) hujjatlarida irodani ifodalash shakllari yoki tashkilotga aʼzo-davlatlarning yoki xalqaro tashkilotning oʻz xohish-irodasi toʻgʻrisidagi qoidalar mavjudmi?

Birinchi savolga javob berar ekanmiz, takror aytamizki, xalqaro tashkilotlarning mutlaq koʻpchiligi asosiy yoki oliy organlarga majburiy vakolatlar beradi, jumladan, muayyan toifadagi masalalar boʻyicha majburiy qarorlar qabul qilish masalasida. Shunday qilib, masalan, BMT Xavfsizlik Kengashining individual qarorlarining majburiyligi BMT Nizomidan kelib chiqadi. Nizomning 25-moddasiga muvofiq, Xavfsizlik Kengashi rezolyutsiyalari barcha davlatlar tomonidan bajarilishi majburiy boʻlgan xatti-harakatlar qoidalari hisoblanadi. Biroq, BMT Bosh Assambleyasi yoki BMTning boshqa organlari rezolyutsiyalari koʻp hollarda xalqaro huquq manbalari sifatida qaralmaydi.

Bunda BMT Nizomining 11-moddasiga havola qilinadi, unga koʻra ushbu organlarning qarorlari tavsiyalar sifatida baholanadi. Biroq, yana bir nuqtai nazar mavjud boʻlib, unga koʻra xalqaro organlarning qarorlari, xususan, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan bir ovozdan qabul qilingan qarorlar, agar ushbu qarorlar tashkilot Nizomiga asoslangan boʻlsa va nizom qoidalarining talqini boʻlsa, majburiy deb hisoblanishi mumkin va shunday deb hisoblanishi kerak. Baʼzi olimlar bu yoʻnalishda “BMT Bosh Assambleyasining deklaratsiyalar deb ataladigan baʼzi rezolyutsiyalarida BMTga aʼzo-davlatlarning oʻzaro munosabatlari uchun kelishilgan qoidalar mavjud boʻlib, ular

allaqachon mavjud xalqaro-huquqiy normalarni (shartnoma yoki odatlarni) takrorlaydi, lekin aniqroq shaklda, yoki yangi imperativ retseptlarni ifodalaydi” deya ta’kidlab o’z fikrlarini ma’lum qiladilar. Bunday hujjatlarga 1960-yildagi Mustamlaka mamlakatlar va xalqlarga mustaqillik berish to’g’risidagi deklaratsiyaning mustamlakachilikni to’liq taqiqlash va barcha hokimiyatni qaram hududlardagi xalqlarga o’tkazish choralari ko’rish to’g’risidagi qoidalar kiradi. Yana bir misol sifatida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan BMT Nizomining 108-moddasi asosida Nizomning ayrim moddalariga o’zgartirishlar kiritish (shunga o’xshash normativ xarakterdagi rezolyutsiyalar 1963, 1965, 1971-yillarda qabul qilingan)ni keltirish mumkin.

Shunday qilib, ta’kidlashimiz mumkinki, barcha hollarda ham ta’sis (nizom) hujjatlarida xalqaro tashkilot rezolyutsiyalarining majburiy kuchi to’g’risidagi qoidalar mavjud. Rezolyutsiyalar bunday xususiyatga ularni amalga oshirish jarayonida ham a’zo-davlatlar tomonidan ularning majburiyligini tan olish orqali ega bo’lishi mumkin. Shu munosabat bilan professor P.N. Biryukov normativ rezolyutsiyalarning ikkita guruhini ajratib ko’rsatadi:

1) ushbu tashkilotning organlari uchun majburiy bo’lgan qoidalarni belgilovchi rezolyutsiyalar (organlarning nizomlari, tashkilotning budjetini shakllantirish to’g’risidagi rezolyutsiyalar, ushbu tashkilot faoliyatini tartibga soluvchi normalar va boshqalar). Ushbu xalqaro normalar ma’lum bir tashkilotning ichki qonunchiligining bir qismini tashkil qiladi;

2) xalqaro va/yoki davlat milliy qonunchiligining havolaki normalari kuchiga asosan yuridik majburiy xususiyatga ega bo’luvchi rezolyutsiyalar [6].

Yuqorida berilgan ikkinchi savolga murojaat qilib, xalqaro huquq doktrinasida quyidagi qoida tan olinishini ta’kidlash mumkin: davlatlar xalqaro tashkilotlarni tuzib, ularning huquq va majburiyatlarga ega bo’lish, xalqaro huquq normalarini yaratish va qo’llashda ishtirok etish, xalqaro huquq normalariga a’zo-davlatlar tomonidan rioya etilishini nazorat qilish layoqatini e’tirof etgan holda, ularga muayyan huquq va muomala layoqatini beradi.

Shunday qilib, xalqaro tashkilotlarning ta’sis hujjatlarida nafaqat qarorlarining yuridik kuchi to’g’risidagi qoidalar, balki qonun ijodkorligi uchun irodani ifodalash shakllari ham qayd etilgan.

Shu munosabat bilan biz E.S. Krivchikovaning “a’zo davlatlarning kelishilgan irodasi ifodasini xalqaro tashkilotlar qarorlarida kuzatish mumkin” [7] degan gapiga to’liq qo’shila olmaymiz. V.N. Zaxarova ta’kidlaganidek: “Xalqaro tashkilotlarning rezolyutsiyalari xalqaro huquqning mustaqil subyekti sifatidagi xalqaro tashkilot irodasining bir tomonlama ifodalanishi, uning irodasini amalga oshirishning konkret ifodasi natijasidir” [8, B.13].

Shu bilan birga, irodaning bunday bir tomonlama ifodalanishi mazkur tashkilotga a’zo-davlatlarning ta’sis aktida ifodalangan irodasi kelishilganligi bilan bog’liq. Normativ rezolyutsiyalarni qabul qilish kabi harakatlar xalqaro tashkilot tomonidan, agar bu uning ta’sis hujjatida nazarda tutilgan bo’lsa, amalga oshirilishi mumkin. Shunday qilib, bu holda yangi qoidaning paydo bo’lishi pirovard natijada xalqaro huquqning suveren subyektlari o’rtasidagi kelishuvga asoslanadi [9, B.58].

Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlar ichki huquq normalarining mutlaq ko’pchiligi xalqaro huquq subyektlari irodasini muvofiqlashtirish yo’li bilan emas, balki xalqaro tashkilotlar organlari tomonidan majburiy bo’lgan qarorlarni qabul qilish yo’li bilan qabul qilinadi. Ushbu pozitsiyalardan biz professor S.V. Chernichenkoning “tashkilotning ichki hayotini tartibga soluvchi qoidalar tashkilotga a’zo davlatlar o’rtasidagi kelishuv natijasidir” degan tasdig’iga qo’shila olmaymiz [10]. Chunki bu qoidalar asosan xalqaro tashkilot organlari tomonidan mustaqil norma ijodkorligi natijasidir.

Xalqaro tashkilot organlari tomonidan ichki huquq normalarini qabul qilish jarayoni xalqaro huquqning boshqa normalarini yaratishdan sezilarli darajada farq qiladi. Bu yerda davlatlarning ushbu xulq-atvor qoidasini majburiy deb tan olishga roziligi vaqt o’tishi bilan xalqaro huquq

normasining yaratilishidan oldin bo'ldi va "mohiyatan Nizomning qabul qilinishi bilan birlashadi", chunki ta'sis hujjatlari, qoidaga ko'ra, xalqaro tashkilotlarning ichki huquqining yuridik jihatdan majburiy bo'lgan normalari uchun asos yaratadi.

Hozirgi vaqtda xalqaro tashkilotlarning norma ijodkorligi faoliyatining ikkita tarkibiy qismi mavjudligi to'g'risidagi qoida keng e'tirof etilgan: a) xalqaro huquqni yaratishda bevosita ishtirok etish; b) davlatlarning qonun ijodkorligi jarayonida ishtirok etish.

Shu o'rinda, xalqaro tashkilotlarning o'zlari xalqaro huquq normalarini o'z ichiga olgan hujjatlarni bevosita va bir tomonlama qabul qila oladimi, degan savolga to'xtalib o'tmoqchimiz. Bu savolga turli mualliflar maxsus ishlarda ham ijobiy, ham salbiy javob berishadi. Masalan, S.A. Malinin va T.M. Kovaleva ta'kidlaganidek, "xalqaro tashkilotning xalqaro huquq normalarini yaratishdagi ishtiroki uning normalarni shakllantirishdagi yordamchi funksiyalarini amalga oshirishni emas, balki amaldagi norma ijodkorligini to'liq ochib beradi" [9]. Akademik G.I. Tunkin "Bosh Assambleya ... faqat tor doiradagi, asosan tashkiliy va moliyaviy masalalar bo'yicha majburiy qarorlar qabul qilishi" ga ishora qilib, boshqa pozitsiyani egallaydi, ammo keyinchalik "Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi rezolyutsiyalarida ishlab chiqilgan normalar odat qoidalari qanday shakllansa, xuddi shunday xalqaro huquq normalariga aylanishi mumkin" deb ta'kidlaydi [2]. Martti Koskenniemi ham quyidagicha yozadi: "Xalqaro tashkilotlar rezolyutsiyalari xalqaro odatiy huquqning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi" [10].

BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyasining normativ rezolyutsiyalar qatoriga tegishli yoki tegishli emasligini aniqlash uchun ikkita shart boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qiladi, deb hisoblaymiz: a) rezolyutsiyalar huquqiy normalarni yaratishi kerak; b) bunday rezolyutsiyalar ta'sis akti – BMT Nizomi doirasida qabul qilinishi kerak.

BMT Xavfsizlik Kengashi va Bosh Assambleyaning norma ijodkorligida (albatta, cheklangan chegaralarda) BMTning barcha a'zolarining umumiy yig'ilishi sifatida ishtirok etish imkoniyati tan olinishi kerak. Hech bo'lmaganda, Bosh Assambleya rezolyutsiyalari ayrim toifalarining majburiy kuchini shubha ostiga qo'yish qiyin. Xuddi shunday, ular orasida umummajburiy huquq normalarini o'z ichiga olgan rezolyutsiyalar mavjudligini ham inkor etib bo'lmaydi.

Shunday qilib, bizning fikrimizcha, xalqaro tashkilotlarning majburiy rezolyutsiyalarni qabul qilish layoqatini tan olgan mualliflarning pozitsiyasi yaxshiroq asoslanadi va bundan tashqari, xalqaro-huquqiy amaliyot bilan ham tasdiqlanadi. Shu munosabat bilan, V.M. Shumilov qayd etadiki, "Xalqaro tashkilotlarning qarorlari (rezolyutsiyalari) bir necha turdagi normalarni o'z ichiga oladi, masalan: xalqaro iqtisodiy huquqning amaldagi odatiy-huquqiy tamoyillari va normalari; davlatlarning roziligi (*opinio juris*) natijasida doimiy amaliyot va pretsedentlarsiz xalqaro huquqning odat normalariga aylangan yangi tamoyillari va normalar; axloqiy-siyosiy xarakterdagi yuqori majburiy kuchga ega bo'lgan siyosiy (tavsiyaviy) normalar (yumshoq huquq)" [11, B.43-44].

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, xalqaro tashkilotlarning rezolyutsiyalarida, shubhasiz, xalqaro huquqning yangi manbalariga, jumladan, xalqaro tashkilotlarning diplomatik huquqiga ham havola qilinadi. Biroq, "davlatlararo munosabatlarga oid hukumatlararo tashkilotlarning rezolyutsiyalari (qaror va tavsiyalari)ning ahamiyati to'g'risidagi masala yetarlicha o'rganilmagani" ham shubhasizdir. Bu, eng avvalo, xalqaro tashkilotlarning qanday rezolyutsiyalari xalqaro huquqning, jumladan, xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqining manbasi sifatida tan olinishi masalasidir.

Aksariyat mualliflar bunday manba sifatida xalqaro tashkilotlarning majburiy rezolyutsiyalarini ko'rsatadilar [12]. Shu bilan birga, xalqaro huquq manbalariga yoki xalqaro tashkilotlarning qarorlariga bag'ishlangan yoki ularga ta'sir ko'rsatadigan yuqoridagi va boshqa ishlarning aksariyatida xalqaro huquqning manbasi sifatida xalqaro tashkilotlar rezolyutsiyalarining qaysi turlari tan olinishi aniqlanmagan.

Shunday qilib, qat'iy ma'noda xalqaro huquqning, shu jumladan xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqining manbalari bo'lmagan rezolyusiya-tavsiyalari huquqni qo'llash amaliyotiga kiritilgan. Ushbu qarorlar odatda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

birinchidan, yangi qoidalarini belgilovchi deklaratsiyalar (masalan, BMT Bosh Assambleyasining yangi xalqaro iqtisodiy tartibni o'rnatishga qaratilgan deklaratsiyalari);

ikkinchidan, davlatlar o'rtasidagi hamkorlikning muayyan sohasini rivojlantirish dasturlari (masalan, Jahon banki – XVJ tomonidan qabul qilingan alohida davlatlar iqtisodiyotini tarkibiy moslashtirish dasturlari);

uchinchidan, davlatlarning maxsus xalqaro-huquqiy tartibga solish sohasidagi xulq-atvor kodekslari (masalan, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining odob-axloq kodeksi).

Xalqaro tashkilotlar rezolyutsiyalarining so'nggi, mustaqil turini xalqaro tashkilotlarning majburiy (normativ) rezolyutsiyalari tashkil etadi va BMT Ustavining 25-moddasi matnidan kelib chiqilsa, bunday rezolyutsiyalarning yorqin misoli BMT Xavfsizlik Kengashining rezolyutsiyalari bo'lishi mumkin. Hozirda Xavfsizlik Kengashi normativ xarakterdagi majburiy rezolyutsiyalarni qabul qilishi mumkinligiga shubha yo'q. N.I.Kostenko, shuningdek, "Nizomning VII bobiga muvofiq qabul qilingan Xavfsizlik Kengashining qarorlari barcha davlatlarni sud qarorlarini ijro etish choralari ko'rishga majbur qiladi", deb ta'kidlaydi [13].

Jan Klabbers bu borada "xalqaro tashkilotlar rezolyutsiyalarining huquqiy kuchi ularning qabul qilinish jarayoni, mazmuni va maqsadlariga bog'liq" deb ta'kidlaydi [14].

Xalqaro tashkilotlar rezolyutsiyalarining quyidagi turlari xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqining manbalari sifatida e'tirof etiladi:

- Xalqaro tashkilotlarning reglamenti/tartib qoidalari;
- Xalqaro tashkilotlarning qonuniy kuchga ega deb topilgan rezolyutsiyalari;
- Xalqaro tashkilotlarning majburiy (normativ) rezolyutsiyalari.

Xalqaro tashkilotlar rezolyutsiyalari o'zining yuridik kuchi va mohiyatiga ko'ra xalqaro-huquqiy hujjatlar hisoblanadi va muayyan mezonlarga javob bergan taqdirda xalqaro tashkilotlar diplomatik huquqining manbalari sifatida e'tirof etilishi mumkin. Bu mezonlar quyidagilardan iborat:

– Rezolyusiyaning yuridik jihatdan majburiyligi ta'sis (ustav) hujjati matnidan kelib chiqishi yoki xalqaro huquq subyektlari tomonidan rasman tan olinishi lozim.

– Xalqaro tashkilot rezolyusiya faqat a'zo-davlatlarning irodasiga ko'ra emas, balki tashkilotning ta'sis hujjatidan kelib chiquvchi o'z huquqiy irodasi orqali ham yuridik jihatdan majburiy tusga ega bo'lishi mumkin.

– Xalqaro tashkilotlarning rezolyutsiyalari faqat huquqni qo'llash aktlari bo'libgina qolmay, balki normativ hujjatlar sifatida ham baholanadi.

– Ular nafaqat tashkilotning ichki huquq hujjatlari, balki xalqaro huquq normalariga ham normativ xususiyat beradi.

– Normativ rezolyutsiyalar faqat a'zo-davlatlar uchun emas, balki xalqaro tashkilotning o'zi uchun ham huquq va majburiyatlar yuzaga keltiradi.

– Bajarilishi majburiy bo'lgan rezolyutsiyalar xalqaro huquq manbasi sifatida nafaqat a'zo-davlatlar, balki xalqaro huquqning boshqa subyektlari uchun ham huquq va majburiyatlar yuzaga keltiradi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020 // URL: <https://president.uz/uz/lists/view/3324>. (Murojaat qilingan sana: 10.08.2025).

2. Тункин Г.И. Теория международного права / Под. общ. ред. Н.Л. Шестакова. – М.: Изд-во «Зерцало», 2000.

3. Chinkin C. Sources of International Law // International Law / Ed. by M. Evans. – Oxford: Oxford University Press, 2014.
4. Моравецкий В. Функции международной организации. – М.: Прогресс, 1976.
5. Крылов Н.Б. Правотворческая деятельность международных организаций. – М.: Наука, 1988.
6. Бирюков П.Н. Обязательные резолюции международных организаций // Международное право: Учеб. пособие. – М.: Юрист, 1998.
7. Кривчикова Э.С. Основы теории права международной организации: Учеб. пособие. – М., 1989.
8. Захарова В.Н. Выполнение обязательств, вытекающих из международного договора. – М.: Международные отношения, 1987.
9. Малинин С.А., Ковалева Т. М. Правосубъектность международных организаций // Правоведение. – 1992. – №5.
10. Koskeniemi M. From Apology to Utopia: The Structure of International Legal Argument. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005.
11. Шумилов В.М. Международное публичное экономическое право: Учеб. пособие. – М.: НИМП, 2001.
12. Рахманов Ш.Н. Резолюции международных организаций: международно-правовой и источниковедческий анализ. Монография. – Т.: УМЭД Пресс, 2013. – 160 с.
13. Костенко Н.И. Международное уголовное право: современные теоретические проблемы. – М.: Изд-во «Юрлитинформ», 2004.
14. Klabbbers J. An Introduction to International Organizations Law. – Cambridge: Cambridge University Press, 2015.

YURIST AXBOROTNOMASI

5-SON, 7-JILD

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 5, ВЫПУСК 7

LAWYER HERALD

VOLUME 7, ISSUE 5

ISSN 2181-9416

DOI JURNAL: 10.26739/2181-9416